

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “KAYFIYAT” KONSEPTI VERBALIZATORLARINING KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK TURLARI: QIYOSIY TAHLIL

Abdusattorova Begoyim Po‘latjon qizi
Andijon davlat chet tillari instituti

Annotatsiya

Maqolada ingliz va o‘zbek tillarida “kayfiyat” konsepti verbalizatorlarining kommunikativ-pragmatik xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda kayfiyatni ifodalovchi birliklar lingvopragmema sifatida talqin qilinib, ularning turli nutqiy aktlarda qanday voqelanishi, qanday pragmatic intensiyalarni yuzaga chiqarishi hamda badiiy matn va uning tarjimasida qanday transformatsiyaga uchrashi yoritiladi. Tahlil natijasida mazkur verbalizatorlar, asosan, ijobiy va salbiy semantik dominantaga ega ikki katta guruhda namoyon bo‘lishi, biroq ularning pragmatik vazifasi har doim kontekst, muallif niyati va adresatga ta’sir strategiyasi bilan belgilanishi ko‘rsatildi. Empirik material sifatida “Boburnoma” va uning inglizcha tarjimalarida uchraydigan misollar asosida elativ, admirativ, volyuntativ, deziderativ, konfyuziv, regrettiv, distressiv, despayziv va apprehensiv kabi turlar sharhlandi.

Kalit so‘zlar: kayfiyat konsepti, verbalizator, lingvopragmatika, nutqiy akt, lingvopragmema, qiyosiy tahlil, pragmatik ma’no, Boburnoma, tarjima.

Kirish

Til insonlar o‘rtasidagi muloqotning eng muhim vositasi bo‘lib, u faqat nominativ vazifani emas, balki kommunikativ va pragmatik vazifani ham bajaradi. Shuning uchun ham til birliklari ma’nosini faqat semantik nuqtayi nazardan emas, balki muayyan nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va yashirin implikaturalar bilan bog‘liq holda o‘rganish zarur. Lingvopragmatika aynan shu masalalarni, ya’ni so‘zlovchi maqsadi, adresatga ta’sir etish mexanizmi, kontekst va nutqiy akt o‘rtasidagi munosabatni tadqiq qiladi.

Pragmatika semiotikaning uch asosiy yo‘nalishi — sintaksis, semantika va pragmatika — tizimida shakllangan bo‘lib, unda belgi bilan foydalanuvchi o‘rtasidagi munosabat asosiy o‘rinni egallaydi. Nutqiy akt nazariyasida esa gap faqat axborot tashuvchi birlik sifatida emas, balki ma’lum harakatni amalga oshiruvchi vosita sifatida qaraladi. Shu ma’noda “kayfiyat” konsepti verbalizatorlari ham sof emotsional holat ifodachisi emas, balki baholash, undash, ko‘ndirish, tasalli berish, xafa qilish, ogohlantirish yoki nafrat bildirish singari kommunikativ-pragmatik maqsadlarni ro‘yobga chiqaruvchi lisoniy vositalardir.

Mazkur maqolaning maqsadi ingliz va o‘zbek tillarida “kayfiyat” konsepti verbalizatorlarining kommunikativ-pragmatik turlarini qiyosiy jihatdan tavsiflash, ularning ijobiy va salbiy dominantali ko‘rinishlarini ajratish hamda badiiy matn tarjimasida ushbu birliklarning pragmatik yuklamasi qanday saqlanishini ko‘rsatishdan iborat.

“Kayfiyat” konsepti verbalizatorlarining lingvopragmatik tabiati

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “kayfiyat” konsepti verbalizatorlari muayyan kontekstda lingvopragmema maqomini oladi. Ular matnning emotsional fonini yaratadi, personajning ichki holatini ko‘rsatadi, muallifning bahosini yuzaga chiqaradi va ko‘pincha keyingi kommunikativ harakatga turtki beradi. Shuning uchun bunday birliklar faqat leksik-semantik hodisa emas, balki strategik-pragmatik hodisa sifatida ham ahamiyatlidir.

Qiyosiy-tipologik kuzatishlar natijasida ushbu verbalizatorlar ikki asosiy semantik-pragmatik qutbda mujassamlashishi aniqlandi: ijobiy va salbiy. Ijobiy guruhga elativ, admirativ, appresiativ, volyuntativ, satisfaktiv, blessiv, akkleymativ, insentiv va konsentiv turlar kiradi. Salbiy guruh esa inappresiativ, regrettiv, irritativ, depressiv, distressiv, affliktiv, repentiv, offensiv, despayziv, menasiv, konfyuziv, embarrassiv, indignativ va apprehensiv¹ kabi turlar bilan ifodalanadi. Ayrim verbalizatorlar, xususan amaziv, emotiv, assertiv yoki surpriziv turlar esa kontekstga qarab ikki qutb orasida harakatlanishi mumkin.

Ijobiy dominantali pragmatik turlar	Salbiy dominantali pragmatik turlar
elativ; admirativ; appresiativ; volyuntativ; deziderativ; satisfaktiv; blessiv; akkleymativ; insentiv; konsentiv; amaziv (ijobiy kontekstda); emotiv (ijobiy fonda).	regrettiv; distressiv; depressiv; affliktiv; irritativ; offensiv; tormentiv; despayziv; menasiv; konfyuziv; embarrassiv; indignativ; apprehensiv; inappresiativ.

Badiiy matn va tarjimada pragmatik voqelanish

“Boburnoma” materiallari shuni ko‘rsatadiki, kayfiyat verbalizatorlari ko‘pincha bevosita emotsional so‘zlar orqali emas, balki tavsiflovchi sifatlar, predikativ konstruktsiyalar, metaforalar, harakat fe’llari hamda izohlovchi sintaktik birliklar

¹ Hoshimov, G. M. K lingvokognitivnoy kompetentsii nositelya yazyka i perevodchika // Tarjimaning lingvokognitiv, kommunikativ-pragmatik va lingvokulturologik aspektlari. Andijon, 2015. B. 214–218.

vositasida voqelanadi. Tarjimada esa ularning barchasi soʻzma-soʻz emas, balki pragmatik ekvivalentlik asosida qayta ifodalanadi.

Masalan, “Ham xavotirlanib, ham xijolatdan tura olmadi, ketishga ruxsat soʻradi²” misolida xijolat va qoʻrquvning qoʻshilishi konfyuziv hamda apprehensiv akti hosil qiladi. Inglizcha tarjimada “No longer able to stay on account of shame and fear, he requested to leave” shakli bu holatni sintaktik jihatdan qayta quradi, ammo pragmatik markaz — uyalish sababli chekinish — saqlab qoladi.

“Toki bir necha yil oʻzbek gʻavgʻo-toʻponlaridan koʻngli siniqqan bu ellarning koʻngli koʻtarilib, kuchayib, umidvor boʻlsinlar” misolida esa elativ va insentiv maʼno birikadi. Bu yerda “koʻngli koʻtarilib”, “kuchayib”, “umidvor boʻlsinlar” birliklari ijobiy kayfiyatni shunchaki tasvirlamaydi, balki jamoaviy ruhni tiklashga qaratilgan pragmatik maqsadni yuzaga chiqaradi. Inglizcha variantdagi “might be lifted, strengthened, and made hopeful again” tuzilmasi ham ayni pragmatik intensionni saqlaydi.

“Men ham minnatdor boʻlib, ruxsat berdim” yoki “asked to leave ... which I granted with pleasure” singari juftliklarda volyuntativ va konsentiv maʼno namoyon boʻladi. Bunda kayfiyat bildiruvchi birlik soʻzlovchining qarorini yumshatadi, ruxsat berish aktini ijobiy emotsional fonda taqdim etadi va muloqotdagi ziddiyatni pasaytiradi.

Ijobiy semantika “Ahmad Xojibek xushtabʼ va mardona kishi edi” misolida appresiativ tarzda voqelanadi. “Good-tempered and manly” shaklidagi inglizcha ekvivalent personajga nisbatan ijobiy baho, hurmat va maʼqullashni anglatadi. Xuddi shuningdek, “Xushxulq, hazilkash, gapga chechan va shirinsoʻz kishi edi” kabi tavsiflar admirativ-appresiativ maydonni yuzaga keltirib, personaj obrazini ijobiy aks ettiradi.

Salbiy dominantali birliklar orasida despayziv va offensiv turlar ayniqsa faol. “Yaramas axloq-atvorli, baxil va fitnachi, badqovoq va munofiq, qaysar va qattiqsoʻz, yuzi sovuq kishi edi” kabi uyushiq tavsiflarda nafaqat salbiy kayfiyat, balki kuchli baholash, rad etish va obroʻsizlantirish strategiyasi ham mujassam. Inglizcha “vile by nature and habit—stingy, seditious, sour, hypocritical, stubborn, harsh-tongued, cold-faced” qatori bu yerda despayziv pragmema yukini muvaffaqiyatli koʻchiradi.

Regrettiv tur “dushmanlar kelganlaridan afsuslandilar”, “pushaymon boʻlib” kabi birliklarda aniq koʻrinadi. Bunday verbalizatorlar fakti xabar qilish bilangina cheklanmay, muvaffaqiyatsizlik, ichki iztirob va qayta baholash aktini ham yuzaga chiqaradi. Tarjimada “the enemy regretted coming” shakli ixcham boʻlsa-da, mazkur pragmatik markazni saqlaydi.

² Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma.

Distressiv va affliktiv turlar “Iztirob bilan otlanib...”, “Bunday zulm va buzuqchilikdan xalqning jonu dillari ozor chekib, ranjidilar” kabi misollarda kuzatiladi. Bu yerda kayfiyat verbalizatori personaj yoki jamoaning ichki azobini, tashqi bosim ta’sirida yuzaga kelgan ruhiy zo‘riqishni ifodalaydi. Inglizcha tarjimalarda “in distress”, “grievous oppression”, “much harassed” singari vositalar bilan ushbu ma’no qayta tiklanadi.

Apprehensiv va menasiv turlar qo‘rquv, vahima, hadik va tahdid semalari bilan bog‘liq. “Qo‘rg‘on eli o‘lim vahimasida laxmdan qochib chiqdilar” misolida vahima kollektiv harakatni boshqaruvchi asosiy pragmatik omilga aylanadi. “Tanbal va uning tarafdorlari hadiksirab, ne qilishlarini bilmay...” misolida esa qo‘rquv qaror qabul qilish mexanizmini izdan chiqaradi. Demak, kayfiyat verbalizatori bu yerda shunchaki psixologik holat emas, balki harakatga sabab bo‘luvchi nutqiy-pragmatik signal hisoblanadi.

Tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan muhim jihat shundaki, o‘zbek tilidagi kayfiyat verbalizatorlari ingliz tiliga ko‘chirilganda ko‘pincha leksik to‘g‘ri muvofiq bilan emas, balki tavsifiy, perifrastik yoki sintaktik ekvivalentlar orqali beriladi. Biroq tarjimon uchun asosiy vazifa denotativ ma’nodan ko‘ra illokutiv kuchni, ya’ni qahramonning ichki kechinmasi va muallifning pragmatik bahosini saqlashdan iborat bo‘ladi.

Qiyosiy kuzatishlarning asosiy natijalari

Birinchidan, ingliz va o‘zbek tillarida “kayfiyat” konsepti verbalizatorlari semantik jihatdan o‘xshash bo‘lsa-da, ularning pragmatik voqelanish shakli har xil. O‘zbek tilida ko‘proq ekspressiv sifatlar, frazeologik birikmalar va holatni batafsil tasvirlovchi sintaktik qurilmalar faoldir; ingliz tilida esa qisqaroq, lekin semantik jihatdan zich sifatlar, participial shakllar va evaluativ konstruktsiyalar ustun keladi.

Ikkinchidan, kayfiyat verbalizatorlari ko‘pincha bir vaqtning o‘zida bir necha nutqiy akti yuzaga chiqaradi. Masalan, xijolat bildiruvchi birlik bir paytda uzrga yaqinlashishi, chekinish strategiyasini kuchaytirishi yoki ijtimoiy masofani saqlashi mumkin. Xuddi shuningdek, xursandlikni ifodalovchi birlik maqtov, rag‘bat, tasalli yoki birlikka chorlash kabi ikkilamchi pragmatik vazifalarni ham bajaradi.

Uchinchidan, pragmatik tipologiyada ijobiy va salbiy qutblar asosiy mezon bo‘lsa-da, ayrim verbalizatorlarning vazifasi o‘tkinchi va kontekstualdir. Shu sababli amaziv, emotiv, surpriziv, assertiv yoki konfirmativ kabi turlarni qat’iy bitta qutbga kiritish emas, balki ularning muloqotdagi vazifasini matn doirasida aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o‘zbek tillarida “kayfiyat” konsepti verbalizatorlari muhim lingvopragmatik vosita sifatida muloqot strategiyasining markaziy komponentlaridan birini tashkil etadi. Ular matnning semantik yadrosini

boyitadi, muallif va personajlarning emotsional-baholovchi munosabatini ochib beradi hamda aniq pragmatic intensiyalarni — ma’qullash, rag‘batlantirish, tasalli berish, xafa qilish, qo‘rqitish, ogohlantirish, afsus bildirish va boshqa ma’nolarni — voqelantiradi.

Qiyosiy tahlil “kayfiyat” verbalizatorlarining ijobiy va salbiy dominantali ikki asosiy turini ajratish imkonini berdi. Biroq ularning haqiqiy funksiyasi faqat kontekst, nutqiy vaziyat va muallif niyati bilan birgalikda ochiladi. “Boburnoma” va uning inglizcha tarjimalari misolida kuzatilganidek, tarjimada formal vositalar o‘zgarsa ham, verbalizatorlarning pragmatik yuki ko‘pincha saqlanadi. Demak, “kayfiyat” konsepti verbalizatorlari ingliz va o‘zbek tillarida nafaqat emotsional mazmunni, balki murakkab kommunikativ-pragmatik munosabatlarni ham aks ettiruvchi ko‘p qatlamli lingvopragmemalardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Austin, J. L. How to Do Things with Words. Oxford: Clarendon Press, 1962.
2. Morris, C. Foundations of the Theory of Signs. Chicago: University of Chicago Press, 1938.
3. Searle, J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge: Cambridge University Press, 1969.
4. Safarov, Sh. S. Kognitiv tilshunoslik. Jizzax: Sangzor, 2006.
5. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma.
6. Hoshimov, G. M. K teorii konseptov i ikh taksonomiki v kognitivnoy lingvistike // Sistem-struktur tilshunoslik muammolari. Samarkand, 2010.
7. Hoshimov, G. M. K lingvokognitivnoy kompetentsii nositelya yazyka i perevodchika // Tarjimaning lingvokognitiv, kommunikativ-pragmatik va lingvokulturologik aspektlari. Andijon, 2015. B. 214–218.
8. Hoshimov, G. M. Tarjima nazariyasi kursidan leksiyalar. Andijon, 2003.
9. Hoshimov, G. M. Lectures on Comparative Typology. Andijon, 2010.
10. Hoshimov, G. M. Turli tizimdagi tillar frazeologik birliklarida frazeo-motivatsiya, frazeonominatsiya va frazeosemantika nazariyasi masalalari // “Komparativistikaning dolzarb masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Farg‘ona, 2018. B. 4–8.